

**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi Madiyeva Mdina va
magistrant Beknazarova Niginaning "Til o'rganishda kommunikativ
kompetensiyaning ta'rifi va asosiy tarkibiy qismlari"
nomli maqolasiga**

TAQRIZ

Mazkur maqolada til o'rganish jarayonida kommunikativ kompetensiyaning ahamiyati, uning mazmun-mohiyati va asosiy tarkibiy qismlari chuqur ilmiy tahlil etilgan. Muallif zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlar asosida kommunikativ kompetensiyaning tarkibini aniqlab, ularni til o'rgatish jarayonidagi o'rni bilan bog'laydi. Ayniqsa, nutqiy faoliyat turlari, lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik va strategik kompetensiyalar haqida berilgan izohlar dolzarb va aniq ifodalangan.

Maqolada til o'rganishdagi muhim tamoyillar, kommunikativ yondashuv, CEF (Common European Framework) doirasidagi kompetensiya turlari bilan bog'liq fikrlar keltirilgan. Shuningdek, muallif nazariy ma'lumotlarni amaliy misollar bilan boyitib, mavzuning o'quv jarayonidagi tatbiqini ham ochib bergan.

Maqolaning tuzilishi, ilmiy uslubi, asoslangan adabiyotlar va xulosalari yuqori bahoga loyiq. Ilmiy-ommabop va metodik nuqtai nazardan foydali bo'lishi mumkin. Maqola ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, tilshunoslik, xorijiy tillarni o'qitish metodikasi, pedagogika yo'nalishlari uchun foydalidir. Chop etishga tavsiya etiladi.

Tadqiqotchilar maqolada ilmiy tadqiqotning tilshunoslik sohasi bo'yicha qo'llaniladigan bir qancha metodlaridan foydalangan. Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, maqola belgilangan nizom qoidalari doirasida bajarilgan va uni nashrga tavsiya etish mumkin.

Taqrizchi:

Termiz davlat pedagogika institutining
Amaliy ingliz tili kafedrasini mudiri,



N. Madalov